

«Talimarjon IES» AJga 2022 yil 9 oy davomida kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha

## MA'LUMOTNOMA

“Talimarjon IES” aksiyadorlik jamiyati rahbariyatiga 2022 yilning o'tgan 9 oy mobaynida jismoniy va yuridik shaxslardan qabul qilingan jami 95 ta murojaatlardagi muammolar to'liq o'rganib chiqildi.

Shundan “Talimarjon IES” aksiyadorlik jamiyatiga o'z mutaxassisligi bo'yicha korxonaga ishga joylashish uchun 68 ta murojaat kelib tushgan.

Ushbu vaziyat yuzasidan murojaatchilarga “Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi” AJda “ish haqi fondi va ish o'rinlarini optimallashtirish” ishlari olib borilayotganligi hamda “Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi” aksiyadorlik jamiyati shtatlar jadvalida bo'sh ish o'rinlari yo'qligi sababli xozirgi kunda ishga qabul qilish imkoni yo'qligi to'g'risida mas'ul xodimlar tomonidan tushuntirish ishlari olib borildi va yozma ravishda javob xatlar yuborildi.

Shuningdek, ro'yxatga olingan 26 ta murojaat jamiyatda faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlar va fuqarolar tomonidan ichimlik suv bilan ta'minlash, uy – joy masalasi, homiylik yordami va moddiy yordam singari bir qancha umumiy masalalar yuzasidan murojaat qilingan bo'lib, ushbu murojaatlar ham rahbariyat tomonidan o'rganib chiqildi.

Har bir murojaat ortida inson taqdiri turadi. Demakki, ularni o'z vaqtida o'rganish va maqbul yechimlarini topish, qonun doirasida tegishli choralarni ko'rish, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish bugunning eng dolzarb vazifasi sanaladi. “Talimarjon IES” AJ rahbariyatiga qilinayotgan har bir murojaat e'tiborsiz qoldirilmaydi.

O'rganish va tahlil o'tkazish davomida “Talimarjon IES” AJga kelib tushgan murojaatlarning barcha yig'ma jildlaridan foydalanildi va mazkur ma'lumotnoma O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi qonunining 35-moddasini 4-bandiga asosan veb-saytga joylashtirilishi uchun taqdim qilinmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslar  
murojaati bo'yicha inspektor:

F. Toyirova